V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

SHERALIYEVA SURAYYO ABDIKODIR QIZI

FILIFORM NILRADIKALLI YECHILUVCHAN LI VA LEYBNITS ALGEBRALARINING MARKAZIY HAMDA ABEL KENGAYTMALARI

01.01.06 – Algebra

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 512.554.1

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

SHERALIYEVA SURAYYO ABDIKODIR QIZI

FILIFORM NILRADIKALLI YECHILUVCHAN LI VA LEYBNITS ALGEBRALARINING MARKAZIY HAMDA ABEL KENGAYTMALARI

01.01.06 – Algebra

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/FM1304 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.kengash.mathinst.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xudoyberdiyev Abror Xakimovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Arziqulov Farhodjon Nematjonovich** fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
	Eshmatov Farxod Xasanovich fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Qoraqalpoq Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil « 13 » yanvar kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (219-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Disertatsiya avtoreferati 2025 yil « 26 » dekabr kuni tarqatiladi.
(2026 yil « 26 » dekabr 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

B.A.Omirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunga kelib jahon miqyosida olib borilayotgan koʻplab ilmiy-amaliy tadqiqotlarning aksariyati algebraik tuzilmalarni oʻrganish, ularning oʻzaro bogʻlanishlari va umumiy xossalarini aniqlash masalalariga keltiriladi. Xususan, turli algebraik tizimlarning strukturasi, klassifikatsiyasi va ular orasidagi munosabatlarni tadqiq etish nazariy jihatdan katta ahamiyatga ega boʻlib, bu yoʻnalishlar matematikaning boshqa sohalari bilan ham uzviy bogʻlangan. Shu nuqtai nazardan, algebraik tuzilmalarni kengaytirish gʻoyalari mavjud nazariyalarni chuqurlashtirish, yangi algebraik modellarni yaratish hamda murakkab tizimlarning ichki tuzilishini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Bunday tadqiqotlar algebraik yondashuvlarning umumiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Algebralarning kengaytmalari va ularni tadqiq etish usullari, ayniqsa, yechiluvchan algebraik tizimlar doirasida, muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Kengaytmalar yordamida algebraik tuzilmalarning yangi xossalari aniqlanadi, ularning tasniflash masalalariga yangi nuqtai nazardan yondashish imkoniyati paydo boʻladi. Shu bilan birga, bunday yondashuvlar algebraik tuzilmalar nazariyasining rivojlanishiga, ularning boshqa matematik sohalardagi qoʻllanilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular algebraik tuzilmalarni chuqurroq oʻrganish va zamonaviy algebra nazariyasini boyitishda muhum oʻrin tutadi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda ilmiy va amaliy qoʻllanilishiga ega boʻlgan fundamental fanlar - matematika, fizika, geologiya hamda biologiya fanlariga e'tibor kuchaymoqda. Jumladan, oxirgi yillarda algebraik obyektlar matematikaning turli sohalarida, ayniqsa geometriya, topologiya va fizikada oʻzining yangi tatbiqlarini topishda davom etmoqda. Bugungi kunga kelib turli xil koʻphilliklardagi nilpotent va yechiluvchan algebralarni, jumladan Li va Leybnits algebralarini tasniflash va kichik oʻlchamli noassotsiativ algebralarning algebraik hamda geometrik tasnifini aniqlash boʻyicha salmoqli natijalarga erishildi. "Algebra va funksional analiz" ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha xalqaro standartlar darajasida tadqiqot olib borish matematika fanining asosiy vazifasi va faoliyat yoʻnalishi etib belgilandi.[1] Qaror ijrosini ta'minlashda ilmiy natijalarni tegishli ilm fanning turdosh sohasida qoʻllash uchun chekli oʻlchamli noassotsiativ algebralar nazariyasini ishlab chiqish, ularni tasniflash belgilangan vazifaning bajarilishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son "Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida"gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017 yil 18 maydagi "Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida"gi 292-sonli qarori.

son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Li algebralari nazariyasiga XIX asr oxirida norveg matematigi Sofus Li tomonidan asos solingan bo‘lib, u inifinitesmal transformatsiyalarni o‘rganish maqsadida fanga kiritilgan. Keyinchalik V.Killing va E.Kartan tomonidan Li algebralarning tuzilishi, tasnifi hamda yechiluvchan va nilpotent algebralar sinflari bo ‘yicha fundamental natijalar olindi. Shu asosda Li algebralarning strukturaviy nazariyasi matematik fizika, geometriya va analiz sohalarining asosiy vositasiga aylandi. XX asrning o‘rtalaridan boshlab Li algebralarning nilpotent va yechiluvchan sinflarini tahlil qilish hamda ularning kengaytmalarini o‘rganish yo‘nalishida faol tadqiqotlar olib borila boshlandi. A.I.Malsev, N.Jakobson, I.Kaplansky, A.Kostrikin, M.Vern, D.Panyushev va boshqa olimlar tomonidan nilpotent va yechiluvchan algebralarning strukturaviy xossalarini, shuningdek, ularning markaziy kengaytmalari va deformatsiyalari o‘rganildi.

Shelbred va Sandlar tomonidan nilpotent Li algebralari uchun ishlab chiqilgan markaziy kengaytma usuli bir qator nilpotent algebralarning tasnifini olish imkonini berdi. Mazkur usul berilgan ko‘phillikdagi kichik o‘lchamli algebralardan foydalanib, ulardan katta o‘lchamli algebralarni tasniflash imkonini beradi. Markaziy kengaytma usuli yordamida nilpotent besh o‘lchamli Yordan algebralari, besh o‘lchamli kommutativ algebralar, olti o‘lchamli Malsev algebralari, olti o‘lchamli binar Li algebralari V.De-Graf, A.Xegazi, X.Abdelvaxab, A.Kalderon, A.Martin, I.Kaygorodov va boshqalarning ishlarida tasniflangan.

Yechiluvchan Li algebralar chekli o‘lchamli Li algebralar nazariyasida muhim rol o‘ynagani sababli, ularni tasniflash uchun turli metodlar ishlab chiqilgan. Shunday samarali usullardan biri Muborakjanov tomonidan taklif etilgan bo‘lib, u yechiluvchan Li algebralarni ularning nilradikallari va nilradikalning nil-erkli differensiallashlari orqali o‘rganish metodikasini ishlab chiqqan. Muborakjanovning natijalari asosida ma’lum nilradikallarga ega bo‘lgan - masalan, abel, filiform, kvazi-filiform va boshqa turdagi yechiluvchan Li algebralarning to‘liq tasnifi X.M.Ankochea Bermudes, R.Kampoamor-Stursberg, L.Garsiya Vergnoll, L.Snobl, D.Karashek J.S.Ndogmo, S.Trembley va P.Vinternitzlarning ilmiy ishlarida keltirilgan. Yechiluvchan Li algebralarning markaziy kengaytmasini aniqlash yordamida markazi nolga teng bo‘lgan algebralarni to‘liq olish imkoni yo‘qligi sababli Sand tomonidan yechiluvchan Li algebralar uchun markaziy kengaytma metodi umumlashtirilgan.

Jean-Louis Loday tomonidan kiritilgan Leybnits algebralari Li algebralarning tabiiy umumlashmasi sifatida algebraik strukturalar nazariyasiga yangi yo‘nalish olib kirdi. Leybnits algebralarda ko‘paytma amali antisimmetrik emasligi sababli, ularning kogomologiya va kengaytma nazariyasi Li algebralarnikidan sezilarli farq qiladi. Shu boisdan Leybnits algebralarning markaziy kengaytmalari, deformatsiyalari va izomorfizm sinflarini o‘rganish alohida ilmiy muammoga aylandi. Bu borada J.-L.Loday, T.Pirashvili, D.Barns, M.Ladra, J.Kasas, A.S.Djumadildayev, Sh. A. Ayupov, I. S. Raximov, B. A. Omirov, A. X. Xudoyberdiyev va boshqa ko‘plab olimlarning ishlari muhim o‘rin tutadi. Ular tomonidan Leybnits algebralarning strukturaviy invariantlarini, markaziy kengaytmalari, deformatsiyalari, kogomologiyasi va degeneratsiyalari tahlil qilingan. Shunungdek, Leybnits algebralari uchun Abel kengaytmalari ilk marotaba M. Kasas, E. Faro va A. M. Viyeteslarning ishlarida keltirilgan bo‘lsa, Abel bo‘lmagan kengaytmalarni aniqlash esa J. Liu, Y. Sheng va Q. Vanglar tomonidan tasniflangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining ilmiy yo‘nalishlariga muvofiq ravishda amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi nilradikallari filiform bo‘lgan chekli o‘lchamli yechiluvchan Li va Leybnits algebralarining kengaytmalari, xususan abel kengaytmalari orqali ularni klassifikatsiyalash va strukturaviy tahlil qilish uchun kompleks yondashuv ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nilpotent va yechiluvchan algebralarni klassifikatsiyalash jarayonida markaziy hamda abel kengaytmalar metodini qo‘llash va umumlashtirish;

yechiluvchan Li algebralarning bir o‘lchamli kengaytmalarini tavsiflash;

n-darajali Shrodinger algebraning markaziy kengaytmalari va infinitezimal deformatsiyalarini aniqlash;

filiform nilradikallarga ega kichik o‘lchamli yechiluvchi Leybnits algebralarning barcha o‘zaro izomorf bo‘lmagan abel kengaytmalarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti: nilpotent, yechiluvchan Li algebralari, *n*-darajali Shrodinger algebrasi, yechiluvchan Leybnits algebrasi.

Tadqiqotning premeti: *n*-darajali Shrodinger algebrasining markaziy kengaytmasi va infinitesimal deformatsiyalari, nilradikali filiform bo‘lgan yechiluvchan Li algebralari, nilradikali null-filfirom va tabiiy usulda gradiurlangan filiform bo‘lgan yechiluvchan Leybnits algebralari, besh o‘lchamli yechiluvchan Leybnits algebralari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kengaytmalar usuli, shuningdek, invariantlar nazariyasi usullari foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

n-darajali Shrodinger algebraning markaziy kengaytmalari va uning infinitezimal deformatsiyalari aniqlangan;

tabiiy usulda gradiurlangan filiform Li algebralarning barcha bir oʻlchamli markaziy kengaytmalari topilgan;

filiform nilradikalli yechiluvchan Li algebralarning bir oʻlchamli kengaytmalari aniqlangan va ularning toʻliq tuzilmalari tavsiflangan;

yechiluvchan Leybnits algebralarning Abel kengaytmalarini qurish usuli ishlab chiqilgan va besh oʻlchamli yechiluvchan Leybnits algebralarining Abel kengaytmalar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Olingan natijalar va dissertatsiyada qoʻllanilgan usullar oliy oʻquv yurtlari magistr talabalari va doktorantlari uchun maxsus kurslarda oʻqitilishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari yechiluvchan Li va Leybnits algebralarning toʻliq klassifikatsiyasiga bevosita daxldor boʻlib, algebraik tizimlarning strukturaviy nazariyasiga sezilarli hissa qoʻshadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Matematik mulohazalarning qat’iyligi, algebralarning boshqa sinflaridagi ma’lum usullaridan, kogomologiyalar nazariyasi, algebralarining strukturaviy nazariyasidagi fundamental natijalardan foydalanilganligi bilan asoslanadi. Mathematica 13 dasturlash tilida yaratilgan maxsus dasturlar yordamida kichik oʻlchamli algebralarning differensiallashlari va avtomorfizmlariga doir natijalar tekshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot yechiluvchan Li va Leybnits algebralarining nazariy asoslarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ish davomida ishlab chiqilgan metodologiyalar va erishilgan natijalar algebra nazariyasiga sezilarli hissa qoʻshadi, hamda ushbu yoʻnalishdagi kelgusi tadqiqotlar uchun qat’iy nazariy asos yaratadi. Amaliy nuqati nazardan esa, ushbu tadqiqot natijalari matematik fizika, boshqaruv nazariyasi va kriptografiya kabi sohalarda qoʻllanish imkoniyatiga ega boʻlib, bu yerda oʻrganilgan algebraik tuzilmalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyadagi barcha natijalar va qoʻllanilgan usullardan oliy ta’lim muassasalarining magistratura va doktorantura talabalari uchun maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Filiform nilradikalli yechiluvchan Li va Leybnits algebralarining markaziy hamda Abel kengaytmalari boʻyicha olingan natijalar asosida:

yechiluvchan Li va Leybnits algebralarning kengaytirish metodidan va filiform nilradikalli yechiluvchan Li algebralarning bir oʻlchamli kengaytmalaridan AP14870282 raqamli “Noassotsiativ algebralar turlari uchun Identifikatorlarni aniqlash” mavzusidagi xorijiy loyihada nonassotsiativ algebralarning boshqa sinflariga umumlashtirish maqsadida qoʻllanilgan (Astana IT Universitetining 2025 yil 5-noyabrdagi №1/1529-sonli ma’lumotnomasi, Qozogʻiston Respublikasi).

Ilmiy natijaning qo‘llanilishi binar va unar Leybnits algebralarining Abel kengaytmalarini aniqlash imkonini bergan;

kichik o‘lchamli yechiluvchan Li va Leybnits algebralarining markaziy va Abel kengaytmalari uchun ishlab chiqilgan usullari va ularning tasniflaridan F-FA-2021-423 raqamli “Operator algebralarining avtomorfizmlari, cheksiz o‘lchamli noassotsiativ algebralar va superalgebralarning klassifikatsiyasi” mavzusidagi fundamental loyihada noassotsiativ algebraik tuzilmalarni tasniflash uchun zamonaviy yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanilgan (Matematika institutining 2025 yil 3-dekabrdagi №2/505-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo‘llanilishi besh o‘lchamli nilpotent Leybnits algebralarining algebraik va geometrik tasniflarini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy, 4 tasi respublika jurnallarida, shuningdek 8 ta ma’ruza tezislari ilmiy konferensiya materiallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qism, to‘qqizta bo‘limga bo‘lingan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 106 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya kirish qism, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, bu qismda dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va premeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Li va Leybnits algebralarining asosiy tushunchalari**” nomli birinchi bobida Li va Leybnits algebralarining ta’riflari, ular uchun umumiy bo‘lgan asosiy tushunchalar va dissertatsiyaning keyingi boblarida foydalanilgan asosiy algebralarning strukturaviy tuzilishlari, Li algebralarining kogomologiyasi, hamda nilpotent Li algebralari uchun markaziy kengaytma va yechiluvchan Li algebralarning kengaytmalarini aniqlash metodlari keltirilgan. Shuningdek, kogomologik fazolariga oid asosiy tushunchalar va teoremalar, hamda Shrodinger algebrasining kogomologik fazolariga oid olingan natijalar bayon qilingan.

Birinchi bobning birinchi bo‘limida boshlang‘ich tushunchalar, Li va Leybnits algebralarining ta’riflari, kengaytmalarni aniqlash metodlari keltirilgan.

1-ta'rif: *F maydon ustida aniqlangan G algebraning ixtiyoriy x,y,z elementlari uchun quyidagi ayniyatlar bajarilsa,*

$$\left[x,\left[y,z\right]\right]+\left[y,\left[z,x\right]\right]+\left[z,\left[x,y\right]\right]=0,$$

$$\left[x,x\right]=0,$$

u holda G algebraga Li algebrasi deyiladi.

2-ta'rif. *F maydon ustida aniqlangan L algebraning ixtiyoriy x,y,z elementlari uchun quyidagi Leybnits ayniyati bajarilsa,*

$$\left[\left[x,y\right],z\right]=\left[x,\left[y,z\right]\right]+\left[\left[x,z\right],y\right],$$

L algebraga Leybnits algebrasi deyiladi..

Aytaylik, *G* Li (Leybnits) algebrasi berilgan bo'lsin. *G* algebra uchun xosilaviy va quyi markaziy qatorlarni mos ravishda quyidagicha aniqlaymiz.

$$G^{[1]}=\left[G,G\right],\ G^{[s+1]}=\left[G^{[s]},G^{[s]}\right],\quad s\geq 1,\ \ G^{1}=\left[G,G\right],\ G^{k+1}=\left[G^{k},G^{k}\right],\ k\geq 1.$$

3-ta'rif. *n-o'lchamli G algebra uchun $s\in\mathbb{N}$ (mos ravishda, $k\in\mathbb{N}$) natural son mavjud bo'lib, $G^{[s]}=0$ (mos ravishda, $G^{k}=0$) tenglik o'rinli bo'lsa, u holda G yechiluvchan (mos ravishda, nilpotent) algebra deyiladi.*

Li algebrasining maksimal nilpotent ideali algebraning nilradikali deb ataladi.

4-ta'rif. *Agar n-o'lchamli G algebra uchun* $\dim G^{i}=n-i$, $2\leq i\leq n$ *tenglik o'rinli bo'lsa, u holda G filiform Li* (Leybnits) *algebrasi deyiladi.*

5-ta'rif. *Agar n-o'lchamli L Leybnits algebrasi uchun* $\dim L^{i}=n+1-i$, $1\leq i\leq n+1$ *tenglik o'rinli bo'lsa, u holda L nol-filiform Leybnits algebrasi deyiladi.*

Nol-filiform Leybnits algebralari maksimal nilpotentlik indeksiga ega algebralar hisoblanadi. *n*-o'lchamli nol-filiform Leybnits algebrasi izomorfizm aniqligida yagona ekanligini Sh.A.Ayupov va B.A.Omirov ishlarida isbotlangan va uning ko'paytmasi quyidagicha ekanligi ko'rsatilgan:

$$NF_n:\quad [e_i,e_1]=e_{i+1},\quad 1\leq i\leq n-1,$$

bu yerda $\{e_1,e_2,\dots,e_n\}$ NF_n algebraning bazislari.

I.A.Karimjonov o'z PhD dissertatsiyasida nilradikali NF_n bo'lgan yechiluvchan Leybnits algebrasini aniqlab, $\{e_1,e_2,\dots,e_n,x\}$ bazisda uning ko'paytmasini quyidagicha bo'lishini isbotlagan:

$$R\left(NF_n\right):\begin{cases}[e_i,e_1]=e_{i+1},\quad 1\leq i\leq n-1,\ \ [x,e_1]=e_1,\\ [e_i,x]=-ie_i,\ \ 1\leq i\leq n.\end{cases}$$

6-ta'rif. Nilindeksi *s ga teng bo'lgan G algebra uchun quyidagi belgilashlarni kiritib olamiz:* $G_i=G^{i}/G^{i+1}$, $1\leq i\leq s-1$, $Gr(G)=G_1\oplus G_2\oplus\ldots\oplus G_{s-1}$. *Gr(G) vektor fazoda esa ko'paytmani quyidagicha aniqlaymiz:*

$$\left[x+G^{i+1},y+G^{j+1}\right]=\left[x,y\right]+G^{i+j+1},$$

bu yerda $x\in G^{i}\setminus G^{i+1}$, $y\in G^{j}\setminus G^{j+1}$. *U holda* $\left[G_i,G_j\right]\subseteq G_{i+j}$ *bo'lib, Gr(G) gradiurlangan algebra bo'ladi. Agar Gr(G) va G algebralar izomorf bo'lsa, u* *holda G algebrani tabiiy usulda gradiurlangan algebra deb ataladi.*

Fransuz matematiki M.Vern o'z ilmiy ishida ikki turdagi tabiiy usulda gradiurlangan Li algebralarini aniqlab, ularning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'lishini keltirib o'tgan:

$$n_{n,1}: \quad [e_i, e_1] = -[e_1, e_i] = e_{i+1}, \qquad 2 \le i \le n-1,$$

$$Q_{2n}: \quad \begin{cases} [e_i, e_1] = -[e_1, e_i] = e_{i+1}, & 2 \le i \le 2n-2, \\ [e_i, e_{2n+1-i}] = -[e_{2n+1-i}, e_i] = (-1)^i e_{2n}, & 2 \le i \le n. \end{cases}$$

Shuni ta'kidalash joizki, ikkinchi tur faqat algebraning o'lchami juft bo'lgandagina mavjud bo'ladi.

A.Sh.Ayupov va B.A.Omirovlar esa o'z ishlarida tabiiy usulda gradiurlangan Li bo'lmagan Leybnits algebralarini tasniflab, quyidagi algebralarga ega bo'lishgan:

$$F_n^1 : [e_1, e_1] = e_3, \ [e_i, e_1] = e_{i+1}, \ 2 \le i \le n-1,$$

$$F_n^2 : [e_1, e_1] = e_3, \ [e_i, e_1] = e_{i+1}, \ 3 \le i \le n-1.$$

7-ta'rif. *(L,[-,-]) Leybnits algebrasining tasviri deb,* $\mathbb{V}$ *vektor fazo va quyidagi*

$$r_{[x,y]} = r_y \circ r_x - r_x \circ r_y, \quad l_{[x,y]} = r_y \circ l_x - l_x \circ r_y, \quad l_x \circ l_y = -l_x \circ r_y, \ \forall x, y \in L$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $l : L \to gl(\mathbb{V})$ *va* $r : L \to gl(\mathbb{V})$ *chiziqli akslantirishlarga, ya'ni* $(\mathbb{V}, l, r)$ *uchlikka aytiladi.*

Xususan $r_x = -l_x$ bo'lsa, u holda $(\mathbb{V}, l, r)$ tasvir Li algebrasining tasviri bo'ladi.

G Li algebrasining *M* moduli uchun $C^0(G, M) = M$, $C^n(G, M) = Hom(G^{\otimes n}, M)$, $n > 0$ fazolarni qarab, $d^n : C^n(G, M) \to C^{n+1}(G, M)$ akslantirishni quyidagicha aniqlaymiz

$$d^n \psi(e_0, \ldots, e_n) = \sum_{i=0}^{n+1} (-1)^i \psi\left(e_0, \ldots, \hat{e}_i, \ldots, e_n\right) +$$
$$\sum_{1 \le i < j \le n} (-1)^{i+j} \psi\left([e_i, e_j], e_0, \ldots, \hat{e}_i, \ldots, \hat{e}_j, \ldots, e_n\right),$$

bu yerda $e_0, \ldots, e_n \in G$ va ushbu $\hat{}$ belgi – uning ostidagi element tashlab ketilishini bildiradi. d^n akslantirish uchun $d^{n+1} \circ d^n = 0$ xossa o'rinli ekanligi $d = \sum_{i \ge 0} d^i$ operator uchun $d \circ d = 0$ tenglik bajarilishini keltirib chiqaradi. Ushbu $H^n(G, M) = Z^n(G, M) / B^n(G, M)$ faktor fazo *G* algebraning *n*-tartibli kogomologik gruppasi deyiladi. Bu yerda $Z^n(G, M) = Ker(d^{n+1})$ va $B^n(G, M) = \mathrm{Im}(d^n)$ mos ravishda *n*-kotsikllari va *n*-kochegaralari deb ataladi.

Xususan, *n=2* bo'lgan xol uchun, agar *M* trivial *G*-modul bo'lsa, u holda 2-kogomologik gruppa Li algebrasining markaziy kengaytmasini xarakterlaydi. Bundan tashqari, agar *M=G* bo'lsa, u holda 2-kogomologik gruppa Li algebrasining infinitesimal deformatsiyasini tasniflaydi.

Agar R berilgan G algebraning ideali bo‘lsa, u holda biz har bir $C^n(R,M)$ da G-modul strukturasini tasniflashimiz mumkin. $n>0$ uchun G ning $C^n(R,M)$ dagi ta’sirini quyidagicha aniqlaymiz:

$$(v.\psi)(e_1,\ldots,e_n)=v.\psi(e_1,\ldots,e_n)-\sum_{i=1}^{n}\psi(e_1,\ldots,e_{i-1},[v,e_i],e_{i+1},\ldots,e_n),$$

bu yerda $v\in G,\ \psi\in C^n(R,M)$ va $e_1,\ldots,e_n\in R.$

Aytaylik, G nilpotent Li algebrasi va $\mathbb{V}$ vektor fazo bo‘lsin. Nilpotent Li algebralari uchun 2-kotsikl tushunchasi quyidagi ayniyatni qanoatlantiruvchi $\psi:G\times G\to\mathbb{V}$ bichiziqli akslantirish sifatida aniqlanadi:

$$\psi(x,[y,z])+\psi(y,[z,x])+\psi(z,[x,y])=0.$$

Barcha 2-kotsikllar fazosini $Z^2(G,\mathbb{V})$ kabi belgilaymiz.

Berilgan $f:G\to\mathbb{V}$ chiziqli almashtirish uchun $df:G\times G\to\mathbb{V}$ bichiziqli akslantirishni $df(x,y)=f([x,y])$ kabi belgilaymiz. Bunday df bichiziqli akslantirishlar 2-kochegaralar deyiladi va 2-kochegaralar fazosi $B^2(G,\mathbb{V})$ kabi belgilanadi. Ta’kidlash joizki, $B^2(G,\mathbb{V})\subseteq Z^2(G,\mathbb{V})$ va $H^2(G,\mathbb{V})=B^2(G,\mathbb{V})/Z^2(G,\mathbb{V})$ faktor fazo 2-kogomologik gruppa deyiladi.

$\psi\in Z^2(G,\mathbb{V})$ akslantirish yordamida $\overline{G}=G\oplus\mathbb{V}$ chiziqli fazoda quyidagi shaklda $[-,-]_\psi$ ko‘paytirish amalini aniqlaymiz:

$$[x+u,y+v]_\psi=[x,y]+\psi(x,y),\ \ \forall x,y\in G,\ u,v\in\mathbb{V}.$$

Yuqoridagi kabi aniqlangan $G_\psi=(\overline{G},[-,-]_\psi)$ algebra G algebraning $\mathbb{V}$ vektor fazo orqali aniqlangan markaziy kengaytmasi deb ataladi.

Aytaylik, G algebraning avtomorfizmlar gruppasi $Aut(G)$ berilgan bo‘lsin. Ushbu $Aut(G)$ gruppaning $Z^2(G,\mathbb{V})$ fazoga ta’sirini

$$\varphi.\psi(x,y)=\psi(\varphi(x),\varphi(x))$$

kabi aniqlaymiz, bu yerda $\varphi\in Aut(G)$ va $\psi\in Z^2(G,\mathbb{V})$. U holda, $B^2(G,\mathbb{V})$ qismfazo bu ta’sirga nisbatan invariant bo‘ladi. Demak, biz $Aut(G)$ gruppaning $H^2(G,\mathbb{V})$ fazoga ta’sirini ham qarashimiz mumkin.

$Ann(\psi)=\{x\in G:\psi(x,G)=0\}$ to‘plam ψ elementning annulyatori va $Ann(G)=\{x\in G:xG=0\}$ to‘plam esa G algebraning annulyatori deb ataladi. Qayd etish joizki, $Ann(G_\psi)=(Ann(\psi)\cap Ann(G))\oplus\mathbb{V}$ tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Quyidagi natija A.Hegazi va H.Abdelvahab tomonidan Yordan algebralari uchun isbotlangan. Aslida bu natija ixtiyoriy noassotsiativ algebra uchun o‘rinlidir. Unga ko‘ra annulyatori noldan farqli har qanday algebra kichikroq o‘lchamli algebraning markaziy kengaytmasi orqali ifodalanadi..

1-tasdiq. *Aytaylik, G algebra n-o'lchamli muayyan tipdagi algebra va* $\dim\left(Ann\left(G\right)\right)=m\neq 0$ bo'lsin. *U holda, ayni tipdagi yagona (n-m)-o'lchamli G' algebra va* $Ann\left(\psi\right)\cap Ann\left(G'\right)=0$ *shartni qanoatlantiruvchi* $\psi\in Z^{2}\left(G',\mathbb{V}\right)$ *mavjud bo'lib,* $G\cong G'_{\psi}$, $G/Ann\left(G\right)\cong G'$ *munosabatlar o'rinli bo'ladi, bu yerda,* $\mathbb{V}$ *m-o'lchamli chiziqli fazo.*

Navbatdagi metod yechiluvchan Li algebralarga tatbiq etiluvchi kengaytirish usuli hisoblanadi. Mazkur metod T. Sand tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda asoslab berilgan

Aytaylik, G yechiluvchan Li algebrasi va $\mathbb{V}$ vektor fazo bo'lsin. $\theta:G\to End(\mathbb{V})$ tasvir va quyidagi ayniyatni qanoatlantiruvchi anti-simmetrik bichiziqli akslantirishni olaylik:

$$\psi(x,[y,z])+\psi(z,[x,y])+\psi(y,[z,x])+\theta(x)\psi(y,z)+\theta(z)\psi(x,y)+\theta(y)\psi(z,x)=0,$$

bu yerda $x,y,z\in G.$

Yuqorida keltirilgan tenglikni qanoatlantiruvchi bichiziqli akslantirishlarni G ning θ ga mos 2-kotsilkli deyiladi va barcha 2-kotsikllar to'plami $Z^{2}(G,\theta,\mathbb{V})$ kabi belgilanadi. G ning θ ga mos 2-kochegaralarni $f:G\to\mathbb{V}$ chiziqli akslantirish va $\varphi\in Aut(G)$ uchun quyidagicha aniqlaymiz:

$$df\left(x,y\right)=f\left(\left[x,y\right]\right)+\theta\left(\varphi\left(y\right)\right)\left(f\left(x\right)\right)-\theta\left(\varphi\left(x\right)\right)\left(f\left(y\right)\right).$$

Barcha 2-kochegaralar to'plamini $B^{2}\left(G,\theta,\mathbb{V}\right)$ kabi belgilanadi va $Z^{2}\left(G,\theta,\mathbb{V}\right)$ ning qism fazosi bo'ladi. $Z^{2}\left(G,\theta,\mathbb{V}\right)$ ni $B^{2}\left(G,\theta,\mathbb{V}\right)$ bo'yicha faktor fazosi $H^{2}\left(G,\theta,\mathbb{V}\right)$ bilan belgilanib, u 2-kogomologik fazoni ifodalaydi

Vektor fazo $\overline{G}=G\oplus\mathbb{V}$ da berilgan $\psi\in Z^{2}\left(G,\theta,\mathbb{V}\right)$ uchun $G\left(\psi,\theta\right)$ Li strukturasini ixtiyoriy $u,v\in\mathbb{V},\ x,y\in G$ lar uchun quyidagicha aniqlaymiz:

$$\left[x+u,y+v\right]=\left[x,y\right]+\psi\left(x,y\right)+\theta\left(x\right)v-\theta\left(y\right)u.$$

$G\left(\psi,\theta\right)$ algebra G ning $\mathbb{V}$ orqali kengaytmasi bo'ladi.

G algebraning nilradikalini N va nilradikalning markazini *Z(G)* bilan belgilab olaylik. Biz nilradikali $\overline{N}$ ya'ni, N ning $\mathbb{V}$ orqali kengaytmasi bo'lgan $\overline{G}=G(\psi,\theta)$ algebrani o'rganamiz. Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: $\psi^{0}=\psi|_{N\times N}$, $\theta^{0}=\theta|_{N}$, $Ann(\psi^{0})=\{x\in N\,|\,\psi^{0}(x,N)=0\}$.

T.Sund o'z ishida quyidagi tasdiqni yechiluvchan Li algebralar uchun isbotlagan.

2-tasdiq. *Bizga* $\overline{G}=G(\psi,\theta)$ *G ning* $\mathbb{V}$ *orqali kengaytmasi berilgan bo'lsin. U holda*

– $\overline{G}$ *ning nilradikali bo'lgan N berilgan N nilradikalning* $\mathbb{V}$ *orqali kengaytmasi bo'lishi uchun* $Ker(\theta)\supset N$ *bo'lishi zarur va yetarli.*

– $Ker(\theta)\supset N$ *bo'lsin. U holda* $Z(\overline{N})=\mathbb{V}$ *bo'lishi uchun* $Ann(\psi^{0})\cap Z(N)=0$ *bo'lishi zarur va yetarli.*

Bizga G algebraning ikkita $G(\psi_1,\theta_1)$ va $G(\psi_2,\theta_2)$ kengaytmalari berilgan bo‘lsin. Ular izomorf bo‘lishi uchun quyidagi tengliklar bajarilishi zarur va yetarli:

$$\theta_2\left(\alpha(x)\right)\left(\beta(a)\right)=\beta\left(\theta_1(x)(a)\right),$$

$$\psi_2\left(\alpha(x),\alpha(y)\right)-\theta_2\left(\alpha(y)\right)\left(f(x)\right)+\theta_2\left(\alpha(x)\right)\left(f(y)\right)=\beta\left(\psi_1(x,y)\right)+f\left([x,y]\right),$$

bu yerda $\alpha\in Aut(G),\ \beta\in Aut(\mathbb{V}),\ f\in Hom(G,\mathbb{V})$.

Yuqoridagi tengliklardan foydalangan holda $Aut(G)\times Aut(\mathbb{V})$ ni $\bigcup\limits_{\theta} Z^2(G,\theta,\mathbb{V})$ to‘plamga ta’sirini olamiz va bunda θ ga mos ψ 2-kotsikl ta’sir natijasida θ' ga mos ψ' 2-kotsiklga quyidagi shaklda o‘tadi:

$$\theta'(x)(a)=\beta\left(\theta\left(\alpha(x)\right)\left(\beta^{-1}(a)\right)\right),\quad \psi'(x,y)=\beta\left(\psi\left(\alpha(x),\alpha(y)\right)\right).$$

T.Sund o‘z ishida yechiluvchan Li algebrasining ikkita $G(\psi_1,\theta_1)$ va $G(\psi_2,\theta_2)$ kengaytmalari izomorf bo‘lishi uchun zarur va yetarli shartni quyidagicha ta’riflagan.

4-tasdiq. *Berilgan G yechiluvchan Li algebrasining ikkita $G(\psi_1,\theta_1)$ va $G(\psi_2,\theta_2)$ kengaytmalari izmorf bo‘lishi uchun $\psi_2-\beta\circ\psi_1\circ\alpha\in B^2(G,\theta_2,\mathbb{V})$ shartni qanoatlantiruvchi $\alpha\in Aut(G),\beta\in Aut(\mathbb{V})$ larning mavjud bo‘lishi hamda β operator θ_2 va $\theta_1\circ\alpha$ larni o‘zaro bog‘lovchi operator bo‘lishi zarur va yetarli.*

Birinchi bobning ikkinchi bo‘limida *n*-darajali Shrodinger algebrasining markaziy kengaytmasi va ikkinchi kogomologiyalar fazolari o‘rganilgan.

n-darajali Shrodinger algebra uch o‘lchamli sodda Li algebrasi va Geyzenberg algebralarining yarimto‘g‘ri ko‘paytmasidan iborat bo‘lib, $\{e,h,f,z,x_i,y_i,1\le i\le n\}$ bazisda ko‘paytmasi quyidagicha aniqlangan:

$$[h,e]=2e,\qquad [h,f]=-2f,\ [e,f]=h,\quad [h,x_i]=x_i,$$

$$[h,y_i]=-y_i,\quad [e,y_i]=x_i,\quad [f,x_i]=y_i,\ [x_i,y_i]=z.$$

n=1 bo‘lgan holda ikkinchi kohomologiyalar gruppasi Y.Zh.Vu, X.Q.Yue va L.Sh. Zhu larning ishlarida aniqlangan bo‘lib, $\dim(H^2(sch_1,\mathbb{C}))=0$ ekanligi isbotlangan. Shu sababli biz, $n\ge 2$ holni qaraganmiz.

1-teorema. *n-* darajali *Shrodinger algebra* sch_n *ning* $n\ge 2$ *uchun ikkinchi kohomologik fazosining o‘lchami* $\dfrac{n(n+1)}{2}-1$ *ga teng.*

2-teorema. $\dim(H^2(sch_2,sch_2))=1$ *va* $H^2(sch_n,sch_n)=0,\ n\ge 3.$

1-natija. *Quyidagicha aniqlangan* ψ *bichiziqli almashtirish* $H^2(sch_2,sch_2)$ *fazoning bazisi bo‘ladi:*

$$\psi(x_1,x_2)=2e,\ \psi(y_1,y_2)=-2f,\ \psi(x_1,y_2)=-h,\quad \psi(x_2,y_1)=h,$$

$$\psi(x_1,z)=3x_2,\ \psi(y_1,z)=3y_2,\quad \psi(x_2,z)=-3x_1,\ \psi(y_2,z)=-3y_1.$$

Dissertatsiyaning “**Yechiluvchan Li algebralarining kengaytmalari**” nomli ikkinchi bobi tabiiy usulda gradiurlangan filiform Li algebralarining markaziy kengaytmasi va nilradikali ushbu tabiiy usulda gradiurlangan filiform algebradan iborat bo‘lgan yechuluvchan Li algebralarining kengaytmalarini tasniflashga bag‘ishlangan.

Ma’lumki, L.Snobl va P.Vinternits o‘z ishlarida nilradikali $n_{n,1}$, J.M Ankochea Bermudes, R.Kampoamor-Shtursberg va L.Garsiya Veryollar esa nilradikali Q_{2n} bo‘lgan yechiluvchan Li algebralarini tasniflashgan.

Ikkinchi bobning birinchi bo‘limi, nilpotent $n_{n,1}$ *va* Q_{2n} Li algebralarining markaziy kengaytmalarini aniqlashga bag‘ishlangan.

Ushbu bo‘limning aosiy natijasi quyidagi teoramada keltirilgan.

3-teorema. $n_{n,1}$ *algebraning ixtiyoriy yoyilmaydigan markaziy kengaytmasi quyidagi o‘zaro izomorf bo‘lmagan algebralarning biriga izomorf bo‘ladi:*

$$n_{n+1,1},\ Q_{n+1},\ \text{and}\ \overline{G}_k\left(2\le k\le\left\lfloor\frac{n}{2}\right\rfloor\right):\begin{cases}[e_i,e_1]=e_{i+1}, & 2\le i\le n,\\ [e_i,e_{2k+1-i}]=(-1)^i e_{n+1}, & 2\le i\le n.\end{cases}$$

1-Izoh. Q_{n+1} *algebra faqat n toq bo‘lganda hosil bo‘ladi.*

Ikkinchi bobning ikkinchi bo‘limi filiform nilradikalli maksimal ko-o‘lchamga ega bo‘lgan yechiluvchan Li algebrasining kengaytmasini aniqlashga bag‘ishlangan. Bizga ma’lumki, bunday algebralar ikkita bo‘lib, ular quyidagi ko‘paytmalar bilan aniqlanadi:

$$s_{n,2}:\begin{cases}[e_i,e_1]=e_{i+1},\ 2\le i\le n-1,\ [e_1,x_1]=e_1,\\ [e_i,x_1]=(i-2)e_i,\ 3\le i\le n,\ [e_i,x_2]=e_i,\ 2\le i\le n,\end{cases}$$

$$\tau_{2n,2}:\begin{cases}[e_i,e_1]=e_{i+1}, & 2\le i\le 2n-2,\ [e_i,e_{2n+1-i}]=(-1)^i e_{2n},\ 2\le i\le n,\\ [e_i,x_1]=ie_i, & [e_i,x_2]=e_i,\quad 1\le i\le 2n-1,\\ [e_{2n},x_1]=(2n+1)e_{2n},\ [e_{2n},x_2]=2e_{2n}, & [x_2,e_{2n}]=-2e_{2n},\end{cases}$$

bu yerda $s_{n,2}$ nilradikali $n_{n,1}$ va $\tau_{2n,2}$ esa nildikali Q_{2n} bo‘lgan algebralar. Ma’lumki, Q_{2n} algebraning yoyilmaydigan markaziy kengaytmasi mavjud bo‘lmagani uchun, unga mos keluvchi yechiluvchan Li algebrasi ham yoyilmaydigan kengaytmaga ega emas. Shuning uchun, faqat $s_{n,2}$ algebraning kengaytmasini aniqlaymiz.

4-teorema. $\overline{G}$ *yechiluvchan Li algebrasi* $s_{n,2}$ *algebraning bir o‘lchamli yoyilmaydigan kengaytmasi bo‘lsin, u holda* $\overline{G}$ *algebra* $s_{n+1,2}$ *va* $\tau_{n+1,2}$ *algebralarning biriga izomorf bo‘ladi.*

Ikkinchi bobning uchinchi bo‘limida nilradikal $n_{n,1}$, Q_{2n} va ko-o‘lchami birga teng bo‘lgan algebralarning bir o‘lchamli kengaytmalari tasniflangan. Bu algebralarning ko‘paytmalari quyidagicha:

$$s^1_{n,1}(\beta):\begin{cases}[e_i,e_1]=e_{i+1},\ 2\le i\le n-1,\ [e_1,x]=e_1,\\ [e_i,x]=(i-2+\beta)e_i,\quad 2\le i\le n,\end{cases}\qquad s^2_{n,1}:\begin{cases}[e_i,e_1]=e_{i+1},\ 2\le i\le n-1,\\ [e_i,x]=e_i,\quad 2\le i\le n,\end{cases}$$

$$s^3_{n,1}: [e_i, e_1] = e_{i+1},\ 2 \le i \le n-1,\ \ [e_1, x] = e_1 + e_2,\ \ [e_i, x] = (i-1)e_i,\ \ \ 2 \le i \le n,$$

$$s^4_{n,1}(\alpha_3, \alpha_4, \dots, \alpha_{n-1}): [e_i, e_1] = e_{i+1},\ \ 2 \le i \le n-1,\ [e_i, x] = e_i + \sum_{l=i+2}^{n} \alpha_{l+1-i} e_l,,\ \ 2 \le i \le n,$$

$$\tau^1_{2n,1}(\alpha): \begin{cases} [e_i, e_1] = e_{i+1}, & 2 \le i \le 2n-2,\ [e_i, e_{2n+1-i}] = (-1)^i e_{2n},\ \ 2 \le i \le n, \\ [e_i, x] = (i-2+\alpha)e_i, & 2 \le i \le 2n-1,\ \ [e_1, x] = e_1, \\ [e_{2n}, x] = (2n+3+2\alpha)e_{2n}, & \end{cases}$$

$$\tau^2_{2n,1}: \begin{cases} [e_i, e_1] = e_{i+1}, \quad 2 \le i \le 2n-2,\ \ [e_i, e_{2n+1-i}] = (-1)^i e_{2n},\ \ 2 \le i \le n, \\ [e_i, x] = (i-n)e_i,\ \ 2 \le i \le 2n-1,\ \ [e_1, x] = e_1 + e_{2n},\ \ \ [e_{2n}, x] = e_{2n}, \end{cases}$$

$$\tau^3_{2n,1}(\alpha_4, \dots, \alpha_{2n-2}): \begin{cases} [e_i, e_1] = e_{i+1}, \quad 2 \le i \le 2n-2, [e_i, e_{2n+1-i}] = (-1)^i e_{2n}, 2 \le i \le n, \\ [e_{i+2}, x] = e_{i+2} + \sum\limits_{k=2}^{\left\lfloor \frac{2n+3-i}{2} \right\rfloor} \alpha_{2k} e_{2k+1+i},\ 0 \le i \le 2n-3,\ \ \ [e_{2n}, x] = 2e_{2n}. \end{cases}$$

